

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ILMY-TEXNIK VA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Maxmudova Sarvinoz Samar qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorlikka bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, ilmiy salohiyatini oshirish hamda vaqtini unumli o'tkazish va pedagogikaning ilmiy-texnik qobiliyat bilan bog'liqligidagi samarasini borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: aqlni rivojlantiruvchi o'yinchoqlar, gadgetlardan yiroqlilik, pomidorro metodi, samarali uyqu vaqtлari, hamkorlik, teatr va rolli o'yinlar.

Kirish:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich 2022-yilning 15-noyabr kunida bo'lib o'tgan kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish masalalari bo'yicha jahon konferensiyasidagi nutqida "Bu borada avvalambor yoshlar va boallarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirsih orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimzi yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q" deya fikr bildirdi. Ushbu fikrdan anglashiladiki, milatimiz qudratli bo'lishi uchun eng katta e'tiborni negizga, ya'ni maktabgacha yoshdagi rivojlanib borayotgan yosh avlodga qaratish va ushbu borada zamonaviy hamda ideallahgan chora-tadbirlar ko'riliishi lozim

Asosiy qism

2023-yil 1-avgust holatiga ko'ra, Respublikada jami 30792 ta maktabgacha ta'lif tashkiloti mavjud bo'lib, ularning 6734 tasi davlatga qarashli tashkilot hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish maqsadida ushbu tashkilotlarning barchasida yaratuvchanlikka undaydigan hamda aqlni rivojlantiruvchi mashg'ulot dasturlari va turli xildagi o'yinchoqlar mavjud. O'yinchoqlar bolalarni maqsadli va mazmunli faoliyatga o'rgatadi hamda ularda fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi. U orqali har bir bola shaxs sifatida sakllanadi.

Bolalar uchun asosiy 5 ta rivojlantiruvchi o'yinchoqlar:

- Osma shaqildoqlar, marjonlar (3 oylikkacha bo'lgan bolalar uchun);
- Bir-birining ichiga tushadigan o'yinchoqlar (6 oylikdan oshgan bolalar uchun);
- Obrazli o'yinchoqlar (1 yoshdan oshgan bolalar uchun);
- Montessori taxtasi (1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun).

Yuqorida 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar keltirildi. Bularidan eng foydalisi montessori taxtasi hisoblanadi. U boladagi

harakatlarni boshqarish qobiliyatini, mantiqni, shuningdek, motorikani rivojlantiradi. O'yinchoqlar bolalarning har qanday qobiliyatini rivojlantirishda eng muhim omillardan biridir.

3-7 yosh oralig'idagi bolalarning faoliyatini faqatgina maktabgacha ta'lim muassasalari bilan cheklab qo'yish hozirgi kundagi eng og'riqli nuqtalardan biri hisoblanadi. Har bir bola tarbiyasiga mas'ul shaxs bolani uyda alohida shug'ullantirishi, u bilan ijodiy suhbat olib borishi zarur. Bolani gadjetlardan (mobil telefon, kompyuter, planshet, musiqa pleyerlari va boshqalar) uzoqlashtirgan holda foydali mashg'ulotlar bilan ovutib samarali kun tartibiga o'rgatib borish uning mas'uliyatlilagini, ma'lum rejimda ishlashini ta'minlab beradi.

Bolalarda ularning qaysi o'yinchoqlarini qachon va qancha vaqt davomida o'ynashi ham nazorat ostida bo'lishi tavsiya qilinadi. Buning uchun "pomidorro" metodi eng samarali metod sanaladi. Ushbu metoddan ma'lum grafika asosida o'yinchoqlar va dars qilish jarayoni taqsimlanadi. 25 daqiqa o'yinchoq o'ynalsa, 5 daqiqa davomida ota-onada va bola o'rtasida ijodkorlikka undovchi suhbat quriladi. Bu ketma-ketlik 4 marta takrorlanganidan so'ng bolaning qiziqishi asosida rasm chizish, eng boshlang'ich darajadagi yozuv daftarlari asosida muloyimlik bilan harf va sonlardan boshlab o'rgatish yoki qiziqarli kitoblar o'qib berish (bola o'qiy oladigan bosqichga yetganida o'zi o'qishi) tavsiya qilinadi.

Bolalarning samarali uyqu vaqtlarini ta'minlash ularning ruhiy holatini yaxshilaydi va kun davomida tetik yurishiga xizmat qiladi. Qancha emas qachon va qanday uqlash muhim. Agar foydali ish koeffitsiyenti kam bo'lsa, 10 soatlik uyqu ham kamlik qialdi yoki aksincha, foydali ish koeffitsiyenti yuqori bo'lsa, 5 yoki 6 soatlik uyqu ham yetarli bo'lishi mumkin. Maktab yoshi arafasidagi bolalarda 23:00 dan 03:00 gacha 3 soat uqlanganda 6 soatlik uyquni beradi, bola uyquga to'yib uyg'onadi va uyg'onishi osonlashadi. Bunda aynan 23:00 da uqlash nazarda tutilmaydi. Mana shu 3 soat uyqu uchun muhim vaqt ekanligi anglashiladi. Kechki uyqu vaqtлari bolaning jismoniy holati asosida ota yoki ona tomonidan belgilangani ma'qul.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanish jarayonida tarbiyachi va ota-onada hamkorlikda ishlashi lozim. Ya'ni, ta'lim muassasida bajarilgan mashg'ulotlar uyda ota-onada nazorati ostida qaytadan shug'ullantirilishi kerak. Bu holatda natija yanada yaxshilanadi.

Teatr hamda rolli o'yinlarning bolaning ijodkorlikka, yaratuvchanlikka bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bolalarga kerakli sharoit yaratib berilgan holda ular bilan birga rolli o'yinlar tashkil qilish va albatta, o'yin yakunida har doim bolani rag'batlantirish tavsiya etiladi.

Xulosa

Ilmiy-texnik hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maktabgacha yoshdagи bolalarda turli xil metodlar orqali yaratuvchanlikka qiziqishini shakllantirish eng muhim va samarali bosqichlardan biri hisoblanadi. Zero, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabitdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Muslimov, Sh. Sharipov, M. Qodirov. "Texnik ijodkorlik va dizayn". Toshkent — 2010
2. www.tdpu.uz
3. <https://kun.uz>
4. <https://daryo.uz>
5. <https://uz.m.wikipedia.org>
6. <https://yuz.uz>